

BUXORO XONLIGI VA ERON O'RTASIDAGI HUDUDIY NIZOLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI.

Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo o'g'li
Buxoro davlat universiteti magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro amirligining tashqi siyosatida qo'shni o'lkalar bilan xususan Eron bilan o'rtadagi ba'zi bir o'zaro kelishmovchiliklar va ziddiyatlar tarixi chet el sayyoh va elchilari kundalıkları hamda bir qancha mahalliy manbaalardagi ma'lumotlar asosida izohlab berishga harakat qiligan. Buxoro qadimdan buyuk svilizatsiyalar kesishgan nuqtada, savdo-sotiq, tijorat, hamda tarixan boy bo'lgan xalqaro munosabatlar yo'nalishining chorrahasida joylashgan. Takomillashib borgan savdo-sotiq va boshqa sohalar sababli bu hududga juda ko'plab imperiya va qo'shni davlatlar egalik qilishni orzu qilgan. Bu holat ba'zida siyosiy o'yinlar shaklida ba'zan esa hatto qurolli to'qnashuvlar ko'rinishida yuz bergan..

Kalit so'zlar: Nodirshoh, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Shayboniyxon, Ismoil Safaviy, Yamanitirsak, Abdulla Yamaniy, Elbarsxon.

Tarixdan ma'lumki, kuchli davlatlar doimo bir-birlari bilan u yoki bu masalada o'zaro ziddiyatlar ichida yashagan. Bu ziddiyatlarga ko'pincha strategik jihatdan muhim savdo yo'llari ustida joylashgan ba'zi hududlarga egalik qilish sabab bo'lgan bo'lsa, ba'zida ikkala tomonning turli xil dinlarga e'tiqod qilishi ham o'zaro qirg'inbarot urushlarga sabab bo'lgan. Jumladan, Eron va Buxoro xonligi ham shular qatorida ko'p asrlar mobaynida o'zaro dushmanlik kayfiyatida yashab kelishgan va orada anchayin nizo va kelishmovchiliklar kelib chiqqan va bularni ko'pincha qurol yordamida hal qilishga urinishgan. Garchi Buxoro xonligida va Eronda azaldan bir umumiy islom dini hukmron bo'lsada amalda Buxoro xonligida Islom dinining sunniylik oqimi asosiy diniy e'tiqod bo'lib bu oqimning diniy rahnamolari va boshqa vakillari katta hokimiyatga egalik qilgan va ularga davlat tomonidan har yili bir qancha imtiyozlar berilgan bo'lsa, Eronda asrlar davomida Islom dinining ikkinchi yirik oqimi bo'lgan- Shia mazhabiga nafaqat e'tiqod qilingan, balki bu diniy mazhab qo'shni o'lkalarga ham yoyilgan, masalan, Iroq va Ozarbayjonning ba'zi hududlariga. Aynan mana shu diniy sabab va ikkala davlatda bir-biriga dushman bo'lgan sulolalarning hukmronlik qilishi ham mazkur mojarolarning uzoq va davomli bo'lishiga xizmat qilgan. **Muhammad Shayboniyxon 1510-yilda Marv yaqinidagi Shoh Ismoilga qarshi jangda halok bo'ladi.** Marv jangi 1510-yil 2-dekabr kuni sodir bo'lgan. Ushbu jangda shayboniylar juda katta yo'qotishga uchragan, ko'plab shayboniy sarkardalar halok bo'lgan. Shundan so'ng shayboniylar dastlab Movarounnahr, keyin esa Turkiston (hozirgi Sirdaryoning shimoli)ga chekinishgan. Hatto manbalarda jangdan so'ng Eron shohi Muhammad Shayboniyxonning o'lgan tanasidan boshini judo qilib, bosh suyagida sharob ichgani haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ammo bu bilan Eron va Buxoro o'rtasidagi dushmanlik kayfiyati

yakuniga yetmadi. 1511-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur Eron hukmdori Shoh Ismoilidan 7 ming lashkar olib, Samarqandni egallaydi. Albatta, Samarqand egallanishidan oldin Bobur shayboniylarni Hisor dalasida magʻlub etadi. Samarqand egallangach, kelishuvga koʻra Bobur Movarounnahrda Shoh Ismoilning noibi boʻlishi kerak edi. Shuningdek, Bobur Samarqandda Shoh Ismoil nomiga xutba oʻqitgan. Shundan soʻng Movarounnahr va Samarqand xalqining Boburga nisbatan kayfiyati oʻzgardi. Har bir davlat arbobi mavjud vaziyatdan oʻz manfaati yoʻlida foydalanilishga harakat qiladi. Aynan Samarqandda Eron shohi nomiga xutba oʻqilishi Ubaydullaxon uchun ayni muddao boʻldi. Chunki Ubaydullaxon bundan foydalanib, xalqni oʻz tomoniga ogʻdirgan. Keyinchalik oʻzbek sultonlari Ubaydullaxon atrofida birlashib, Movarounnahrni Eron istibdodidan ozod etdi. Ubaydullaxon Shayboniylar sulolasida Muhammad Shayboniyxondan keyingi eng yirik shaxs hisoblanadi. U amakisi Shayboniyxon davrida biror hududning hokimi sifatida boshqarib, harbiy yurishlarda qatnashib, sayqal topib bordi. Ubaydullaxon 1486-1487-yillar oraligʻida Xorazmdagi Yamanitirsak mavzesida dunyoga kelgan. Ushbu hudud hozirgi Amudaryoning soʻl tomoniga toʻgʻri keladi. Bu vaqtda Shayboniyxon va uning ukasi Mahmud Sulton mulksiz, yurtisiz sargardonlikda hayot kechirar edi. Ubaydullaxon Mahmud Sultonning yagona farzandi hisoblanadi.⁹ 1512-yilning kuzida Gʻijduvonda shoh Ismoil bosh vaziri Najmiddin Yor-Ahmad va Boburning birlashgan qoʻshinlari bilan Ubaydullaxon boshchiligidagi shayboniylar oʻrtasida jang boʻlib oʻtadi. Jang boshlanishidan oldin Bobur Najmi Soniyi tark etadi. Shuningdek, bir nechta Eron sarkardalari ham Najmiddin Yor-Ahmadga yuz oʻgirishadi. Boisi Shoh Ismoil ularga boshqacha topshiriq bergan edi. Eron lashkaridagi tarqoqlikdan Ubaydullaxon foydalangan holda Najmi Soniyi magʻlub etadi. Jang vaqtida Najmi Soniy asirga olinadi. Shunda Ubaydullaxon Najmiddin Yor-Ahmadga **“asirga tushganlar qatl bilinmasligini bilmasmiding”**, deb savol beradi. U esa **“yoʻq bilmasdim”** deb javob beradi. Ubaydulla sulton **“axir bu narsa Qurʻonda yozilgan”** deganida, Najmi Soniy **“men Qurʻonni oʻqimaganman”** deb javob qaytaradi. Shunda Ubaydullaxon **“nahotki, Shoh Ismoil musulmon podshoh boʻla turib, shariatni va Qurʻonni bilmagan insonni bunday katta lavozimga qoʻydi”** deb taajjublangan. Ubaydullaxon keyinchalik davlat boshqaruvida har doim shariatdan xabari bor, Qurʻonni oʻqishni biladigan insonlarni lavozimga qoʻygan. Najmi Soniy Ubaydullaxonga jonini saqlash evaziga 50 ming oltin tanga berishni taklif qiladi. Ammo Ubaydullaxon buni rad etadi va Najmiddin Yor-Ahmadni qatl qildiradi. Shunday qilib shayboniylar davlatini asrab qoladi. Mana shu bilan biz Ubaydullaxonning oʻzbek davlatchiligida tutgan oʻrnini belgilashimiz zarur. Yaʼni u bu yerlarni Eron istibdodidan saqlab qolgan shaxs hisoblanadi. Shayboniy sultonlar orasida Erondan qoʻrquv juda kuchli boʻlgan. Chunki ular Shayboniyxonni oʻta qudratli zot sifatida koʻrishgan. Shayboniyxon Marv jangida boshi kesilib, oʻta tahqirli oʻlim topishi boshqa shayboniy sultonlarga qattiq taʼsir qilgan. Shundan keyin barcha sultonlar oʻz mulklarini asrash

⁹ N. Tumanovich. Gerat v XVI i XVII vekax. – S. 160.

payiga tushishgan. Amir Abdulla Yamaniyning o‘zi har bir o‘zbek sultonlarining oldiga borib, ularni da’vat qilgan. O‘sha vaqtda 20 ga yaqin sulton bo‘lgan. G‘ijduvon jangidan keyin qo‘lga tushgan mablag‘ning bosh sarkardaga teggan qismini Ubaydullaxon amir Abdulla Yamaniyga beradi. Abdulla Yamaniy esa bu mablag‘ evaziga Mir arab madrasasini qurdiradi va shu madrasaga vaqf mulkini tashkil qiladi. Ya’ni G‘ijduvon jangining ma’naviy ahamiyati ham bor.¹⁰ Movarounnahrda keyingi eng yirik bosqinchilik yurishlari Eron shohi Nodirshoh davriga to‘g‘ri keladi.¹¹ Eron shohi Nodirshoh boshchiligidagi harbiy yurish 1737-1740 yillarda O‘rta Osiyo xonliklari Buxoro va Xivani o‘ziga bo‘ysundirish uchun olib boriladi. 18-asr o‘rtalarida afshoriylar sardori Nodirshoh Buxoro va Xivani o‘ziga bo‘ysundira boshlaydi. Birinchi janglar 1737-yilda bo‘lib o‘tadi: otasi Hindistonda jang qilayotganda Nodirshohning o‘g‘li va noibi Rizo Quli Mirzo Qarshi jangida g‘alaba qozonadi. Forslarning hujumlari Xiva hukmdori Ilbarsxonni g‘azablantiradi. Ilbars o‘ch olish bilan tahdid qilganda, Nodirshoh Hindistondagi urushga diqqatini qaratish uchun o‘g‘liga urushni to‘xtatishni buyuradi. Nodirshoh o‘z yurtiga g‘alaba bilan qaytgach, O‘rta Osiyoga yurish uyushtira boshlaydi. Nodirshohning asosiy maqsadi Hindiston yurishidan keyin Xiva va Buxoroni batamom bo‘ysundirish edi. 1734-1735-yillarda Xiva hukmdori Elbarsxon o‘zining turkmanlardan iborat katta bo‘linmasini Xurosonga qarshi yurishga jo‘natadi, ular Alodog‘ va Samalغان tog‘laridagi kurd qishloqlarini talon-taroj qiladilar, ammo keyin Nodirshoh qo‘shinlari tomonidan mag‘lubiyatga uchraydilar. Buxoro xonligiga qarshi uning yurishi dastlab muvaffaqiyatsiz tugaydi. Nodirshohning katta o‘g‘li Rizoquli mirza 1200 kishilik lashkari bilan Amudaryodan o‘tib, Qarshini qamal qilgan. Muxammad Hakimbiy otaliq va Buxoro xoni Abulfayzxon shahar ichida turib dush-manga qarshi kurashganlar. Buxoroliklarning ittifoqchisi Xiva xoni Elbars (hukmronlik davri: 1728—1740) katta qo‘shin bilan yetib kelgach, Rizoquli mirza shoshilinch sulh tuzadi va orqaga qaytadi (1736). Biroq Nodirshohning o‘zi katta qo‘shinga bosh bo‘lgach, Balxni egallab, Buxoro ustiga yurish qilganida uni Muhammad Hakimbiy va o‘g‘li Muhammad Raxim qo‘llab-quvvatlaydi (1740). Buxoro ustidan siyosiy hokimiyat o‘rnatilgach, u Xiva xonligiga qarshi yurish qiladi. Xonqani egallash paytida Xiva xoni Elbars o‘ldirilgan (1740). Nodirshoh hukmronligiga qarshi Xiva va Buxoroda bir necha marta qo‘zg‘olonlar ko‘tarilgan. Eronda ham ichki nizolar va saroy fitnalari kuchayadi. Nodirshoh Xuroson noibi, o‘zining jiyani Aliqulixon tomonidan Mashhadda o‘ldirilgan. Aliqulixon o‘zini Odilshoh nomi bilan shoh deb e‘lon qilgan. Nodirshohning o‘limi bilan Eron davlatining markazlashtirish jarayoni to‘xtab qolgan. 1737- yilda Nodirshohning o‘g‘li, imperiya noibi Rizo Quli Mirzo Afshor avvalroq Balx va Andxo‘y hukmdorlarini o‘ziga bo‘ysundirib, keyin esa Buxoroga qarshi yurish qiladi. Buxoro hukmdori Abulfeyzxon o‘z qo‘shinlari bilan Movarounnahrdan yo‘lga chiqqan Ilbars

¹⁰ *Richard Foltz*. Iran in World History.

¹¹ *Gelmolt (nem.)*. Istoriya chelovechestva. Vsemirnaya istoriya. – T. 3. Pervod V. V. Bartolda. – SPb: Prosveshchenie, 1903. – S. 364.

xonga yordam so‘rab murojaat qiladi. Ilbarsxoning Xuroson shimoliga bostirib kirayotgan bir paytda Nodirshoh Turkistonga bostirib kirish rejasini ishlab chiqayotgan edi. Buning uchun avval Amudaryo ustidan ko‘prik qurish kerak edi, uning kengligi ikki tuya tortadigan aravadan o‘tishi lozim bo‘lgan. Shunday qilib ko‘prik qurilishi 45 kun ichida nihoyasiga yetadi va Nodirshoh o‘z qo‘shinlariga daryoning ikki qirg‘og‘ida ikkitadan istehkom qurishni buyurib, ularning har biriga 5000 nafardan askar joylashtiradi. Ana shu tayyorgarliklardan so‘ng Nodirshoh qo‘mondonligidagi qo‘shin askarlarning yurishdan charchaganiga qaramay, shaharga hujum qilib, Buxoro tomon harakatlana boshlaydi. Nodirshoh o‘z qo‘shinini shunday joylashtirdi: o‘ng qanot, chap, markaz, artilneriya, orqa qo‘riqchi va pistirma polki, har bir pozitsiyaning o‘z qo‘mondoni bor edi. 1740- yilda Nodirshoh Buxoroni egallagandan so‘ng Xiva xonligiga qarshi yurishni boshlaydi hamda Xiva xonligidan bo‘ysunishni talab qilib, Elbarsxonga elchi yuboradi. Ikki nafari shayx bo‘lgan elchilar Elbarsning buyrug‘i bilan qatl etilgan. Keyin Xorazmning janubiy chegaralari yaqinidagi Pitnak jangida Nodirshoh Xiva qo‘shinlarini mag‘lub etadi. Navbatdagi jangda Nodirshoh 30 ming o‘zbek va turkman otliq qo‘shini bo‘lgan Elbarsxon qo‘shini bilan yuzma-yuz keladi. Keyingi jangda Nodirshoh qo‘shini Amudaryodan o‘tib, Elbarsxon qo‘shinlari tomon yura boshlaydi. Qisqa va qonli janglardan so‘ng xivaliklar ikkilanib qolishadi. Elbarsxon ko‘p marta qo‘shinlari safini tiklab, qarshi hujumlarga o‘tmoqchi bo‘ldi, lekin har safar mag‘lubiyatga uchraydi va nihoyat mag‘lubiyatini tan olishga majbur bo‘ladi. Xonqa shahrida qamal qilingan Elbarsxon Nodirshohga taslim bo‘ladi, hamda o‘zining yigirma nafar amiri bilan birga qatl etilgan. Nodirshoh harbiy yurish orqali Markaziy Osiyo mintaqasida o‘z nufuziga ega bo‘ladi. Biroq, Nodirshoh ortga qaytib ketganidan ko‘p o‘tmay, mintaqada yangi afshoriy hokimiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi hamda qo‘shin nazoratini qayta qo‘lga kiritish uchun qaytishga majbur bo‘ladi. Qo‘zg‘olon bostiriladi, Shunday qilib Xorazm 1747-yil vafotigacha Nodirshoh hukmronligida qoladi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkin-ki, Eron va O‘rta Osiyo xonliklari asrlar davomida bir-birlariga nisbatan adovat bilan yashadilar. Bu adovat sababli o‘rtada kelib chiqqan qonli va davomli urushlardan esa deyarli har doim oddiy xalq jabr ko‘rib keldi. Ayniqsa Nodirquli davrida bu urushlar judayam avj olib ikki davlat aholisini beshafqat urush domiga tortdi. Ammo ikki o‘rtadagi ushbu dushmanlik kayfiyati qachondir tugashi kerak edi va bu Sovet Ittifoqi davrining oxirlarida ikki qardosh xalq o‘rtasida deyarli barcha masalada hamkorlikni boshlashga qaror qilindi. 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan keyin esa bunday iliq munosabatlar yanada rivojlantirilib, yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi kunga kelib esa bunday hamkorlik doirasi yanada kengaytirilib, har yili ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengroq rivojlantirishni nazarda tutuvchi milliardlab dollarlik shartnoma va memorandumlar imzolanib, ikki davlat taraqqiyotiga hissa qo‘shilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *N. Tumanovich*. Gerat v XVI i XVII vekax. – S. 160.
2. *Richard Foltz*. Iran in World History.
3. *Gelmolt (nem.)*. Istoriya chelovechestva. Vsemirnaya istoriya. – T. Pervod V. V. Bartolda. – SPb: Prosvechenie, 1903. – S. 364.
4. *Michael Axworthy*. The Sword of Persia: Nader Shah, from Tribal Warrior to Conquering Tyrant. – I. B. Tauris & Co Ltd. – 2006.